

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida

Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish, shuningdek, mehnatiga kam haq to'lanadigan xodimlar ish haqi miqdorini jadal ravishda oshirishni ta'minlash maqsadida:

1. 2018 yilning 1 noyabridan boshlab byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori 1,1 baravar oshirilsin.

2. 2018 yilning 1 noyabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam:

ish haqi — oyiga 202 730 so'm;

yoshga doir pensiyalar — oyiga 396 500 so'm;

bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa — oyiga 396 500 so'm;

zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 243 300 so'm miqdorida belgilansin.

3. Belgilansinki, ish haqi hamda pensiyalarga qo'shilgan ustama va qo'shimcha haqlarning barcha turlari, eng kam ish haqiga nisbatan belgilangan kompensatsiya va boshqa to'lovlar 2018 yilning 1 noyabridan boshlab mazkur Farmonda belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining quyi razryadlari tarif koeffitsientlarini o'rtacha 10 foizga, shu jumladan, 1-razryad bo'yicha 15 foizga, 2-razryad bo'yicha 10 foizga va 3-razryad bo'yicha 5 foizga oshirish orqali mehnatiga kam haq to'lanadigan xodimlarning ish haqi miqdorining jadal ravishda oshirilishini ko'zda tutgan holda 2019 yil 1 yanvardan Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini qayta ko'rib chiqsin;

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan saqlanadigan tashkilotlarda band bo'lgan universal kasblar xodimlari mehnatiga haq to'lashga doir razryadlarni tanqidiy ko'rib chiqsin va 2019 yil 1 yanvaridan ularning yangilanganlarini joriy etsin;

xalqaro moliyaviy institutlar bilan birgalikda mehnatga haq to'lash miqdorining uning natijalari, bajarilayotgan mehnat funksiyalarining murakkabligi va mas'uliyati bilan yanada uzviy bog'liqligini ta'minlashni nazarda tutadigan Byudjet tashkilotlarida mehnatga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilishini va 2019 yil 1 sentyabrga qadar muddatda kiritilishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bilan birgalikda pensiyalar, stipendiyalar hamda byudjet tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshlari miqdorini mazkur Farmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o'z vaqtida qayta hisoblab chiqishni ta'minlasin.

6. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarning oshirilishi bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

Xo'jalik hisobidagi korxonalar va tashkilotlarga ish haqining qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lmagan holda to'lashni ta'minlab, ish haqi miqdorlarini eng kam ish haqiga muvofiq oshirish tavsiya etilsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar Xalq deputatlari kengashlariga mazkur Farmonning qabul qilinishidan so'ng qo'shimcha xarajatlarni qoplash uchun tegishli byudjetlar parametrlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida takliflar kiritsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi PF-5469-son Farmoni uning 6-bandi istisno qilingan holda 2018 yilning 1 noyabridan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev

Manba: uza.uz